

**O'ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O'TISH
STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI
IMKONIYATLAR**

Rustamov Shaxriyor Sherzodbek o'g'li,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabasi.

+998943377732, shakhiyor.16@gmail.com

Ilmiy rahbar: Raimov Xurshid

TDIU Iqtisodiyot fakulteti dekan muovini.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot, makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot haqida tushunchalar, raqamli iqtisodiyotning hayotimizdagi o'rni va yaqin kelajakdagi rivojlanishi, bozor iqtisodiyoti, yashil iqtisodiyotni sanoatdagi, qishloq xo'jaligidagi va energetikadagi o'rni, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, shu bilan bir qatorda mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot” barqarorligini ta'minlashga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 841-sonli qaroriga muvofiq barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarining strategik ahamiyati va amaliyotda qo'llanishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 4 oktyabrda tasdiqlangan “2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-son qaroridagi strategik maqsadlarni ko'rsatib berish, undagi istiqbolli g'oyalarini targ'ib qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish, bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy tizimlarni rivojlantirish vazifalari, mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ekologik siyosat, iqtisodiy mexanizmlar, makroiqtisodiyot,

mikroiqtisodiyot, ekologik muammolar, BMT, Parij bitimi, raqamli iqtisodiyot, yashil moliya.

Abstract: The article discusses the green economy, macroeconomics and microeconomics, their role in our economic life and the near future, market economy, economic industry, agriculture and energy, the trend of green economy development, including the “Trends of Green Economy Development”, the strategic importance of the production guidelines of the Resolution No. 41 of October 20 “On Production Targets and Measures for the Implementation of Products for the Period Until 2030” and the application in practice, the strategic importance of the President of the Republic of Uzbekistan Mirziyoyev Mirziyoyev Production targets for the period until 2030 in 2019 The President of the Republic of Uzbekistan Mirziyoyev 2019 41 October 2019. The content of the program is described, including the development of promising programs, the implementation of production, the measures being taken by the state, the implementation of measures to modernize and develop tools for the "Green Economy" of Uzbekistan.

Keywords: environmental policy, economic mechanisms, macroeconomics, microeconomics, environmental problems, UN, Paris Agreement, digital economy, green finance.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasi keng tarqalgan bo’lib, bu so’z UNEP tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan holda, “yashil iqtisodiyot” – “insonlar farovonligi va ijtimoiy barqarorligining yaxshilanishi, ekologik tavakkalchiliklar va ayniqsa, ekologik resurslarni yetishmasligini sezilarli darajada oldini olish”ga qaratilgan iqtisodiyotdir. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining asosiy maqsadi – barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash, faol investitsiyalarni kuchaytirish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy integratsiya darajasini oshirishdan iborat. Mazkur maqsadlarga erishish uchun davlat va xususiy sarmoyalarni barqaror rivojlanishning ekologik hamda ijtimoiy jihatlariga keng ko’lamda yo’naltirish zarur. [2, 19 b.] Davlat “Yashil iqtisodiyot”ga o’tishda strategik yo’nalishlarni belgilash, qonuniy va me’yoriy bazalarni yaratish,

sarmoyalarni rag'batlantirish, ijtimoiy ongini oshirish, bozor mexanizmlarini boshqarish kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Albatta bu to'g'ri. "Yashil iqtisodiyot" atamasi, asosan, ekologik tamoyillarga tayanadigan tushuncha bo'lib, unda ekologik siyosat iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg'un holda faoliyat yuritadi.

Ekologik siyosatni amalga oshirishning iqtisodiy vositalari xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi uch sinfga bo'linganligini ko'rishimiz mumkin: qoplovchi, rag'batlantiruvchi va cheklovchi. **1.Qoplovchi** mexanizm "Yumshoq" iqtisodiy mexanizm hisoblanib, ekologik siyosat taraflama erkin, u iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarining rivojlanish jarayonida umumiy ekologik cheklovlarni belgilashga xizmat qiladi. **2.Rag'batlantiruvchi** iqtisodiy mexanizm esa tabiatni muhofaza etish bilan bog'liq faoliyat hamda u ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan hisoblanadi. **3.Cheklovchi** mexanizm ya'ni "Qattiq" iqtisodiy mexanizm mamuriy va bozor vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Davlat qat'iy soliq, kredit va jarima siyosatini qo'llash yo'li bilan ayrim tarmoqlarda tabiiy resurslardan foydalanish hajmining ortishini cheklashga intiladi. [1, 144 b.]

"Yashil Iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini rag'batlantirishda "Makroiqtisodiyot" va "Mikroiqtisodiyot" tushunchalarini o'rni baland. **Mikroiqtisodiyot** — bu alohida iqtisodiy subyektlar, ya'ni iste'molchilar, ishchilar, investorlar, firmalar va boshqa ishtirokchilarning iqtisodiy faoliyatini o'rganadigan yo'nalishdir. U bozor sharoitida aniq tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi hamda iste'mol hajmini, narxlarning shakllanish jarayonini, resurslarning tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlanishini, iste'molchilarning xarid qilish xatti-harakatlarini va ishlab chiqaruvchilarning mahsulot ishlab chiqish hamda sotishdagi qarorlarini tahlil qiladi. [5, 17 b.] **Makroiqtisodiyot**, mikroiqtisodiyotdan farqli ravishda, xalqaro iqtisodiy aloqalar, ularning muammolari, yuz berayotgan o'zgarishlar va bu o'zgarishlarning milliy iqtisodiyot jarayonlariga ko'rsatadigan ta'sirini ham o'rganadi. Hozirgi globallashuv davrida dunyo mamlakatlarining iqtisodiy jarayonlarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Shu sababli, makroiqtisodiy tahlilda nafaqat ichki iqtisodiy holat, balki

tashqi iqtisodiy munosabatlar va ularning o'zaro ta'siri ham alohida ahamiyat kasb etadi. [5, 134 b.] Demak, makroiqtisodiy siyosat yashil iqtisodiyotning umumiy strategik asoslarini belgilaydi, mikroiktisodiy faoliyat esa bu siyosatni real iqtisodiy amaliyotda ro'yobga chiqaradi. Shu tariqa, ularning o'zaro uyg'unlashuvi barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tishning maqsadlari va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Ushbu tamoyillar “yashil iqtisodiyot”ning qanday shaklda bo'lishi va uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari “jigarrang iqtisodiyot”ga nisbatan ancha keng qamrovli bo'lib, ular iqtisodiy o'sish jarayonida ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. 1972-yilda Stokgolm shahrida o'tkazilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni muhofaza qilish va rivojlantirishga oid 26 ta asosiy tamoyil ishlab chiqilgan bo'lib, ular “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining nazariy poydevorini tashkil etadi. [2, 32 b.] Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish borasida bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, milliy iqtisodiyotda iste'mol qilinayotgan energiyaning kata qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan olinishi, bu resurslarning zaxirasi cheklanganligi, sanoatning tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi hamda Orol dengizining qurib borishi kabi ekologik muammolarning chuqurlashib borayotgani “Yashil iqtisodiyot”ga o'tishning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ushbu muammolardan eng dolzarb deb hisoblangani bu Orol debgizining qurishidir. Sababi, ushbu fojia iqlim o'zgarishidan hosil bo'ladi. 1880-yildan buyon mamlakatimiz hududida harorat oshish sur'ati global miqyosida qayd etilayotgan o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqoriroq darajada kechmoqda. Ushbu muammolarni oldini olishda O'zbekiston 2017-yil 19-aprel kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-York shahridagi Bosh qarorgohida Parij bitimini imzolagan. Mazkur xalqaro hujjatga qo'shilish mamlakatimiz uchun bir qator muhim strategik, iqtisodiy va ekologik manfaatlarni

ta'minlaydi. Xususan, O'zbekistonning Parij bitimidagi faol ishtiroki quyidagi afzalliklarni beradi: xalqaro ekologik va iqlimiy tashabbuslarda ishtirok etish orqali mamlakat obro'sini oshirish, yashil iqtisodiyotga o'tish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlashga zamin yaratish, iqlim o'zgarishlariga moslashish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qilish, Orolbo'yi mintaqasi kabi ekologik jihatdan nozik hududlarda xalqaro yordamni kuchaytirish uchun huquqiy asos yaratish. [1, 225-226 b.] Parij bitimi mamlakatimiz uchun ekologik, iqtisodiy va ijtimoy barqarorlikni ta'minlash va "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun yo'l ochib berdi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan dunyoda axborot texnologiyalarining insoniyat hayotidagi o'rni nihoyatda yuqori. Ular ba'zi sohalar kabi Iqtisodiyot sohasini ham chetlab o'tmagan. Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik yuritishning zamonaviy va innovatsion shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish hamda boshqaruv jarayonlarining asosiy omili sifatida raqamli shakldagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Ushbu ma'lumlardan amaliyotda foydalanish an'anaviy xo'jalik yuritish usullariga nisbatan ancha yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bunga misol sifatida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, 3D texnologiyalari, bulutli xizmatlar, masofaviy tibbiy xizmat ko'rsatish, "aqlli" texnologiyalar asosida mahsulot yetishtirish va yetkazib berish, shuningdek, tovarlarni saqlash va sotish jarayonlarining raqamlashtirilgan shakllarini keltirish mumkin. [6, 16 b.] Jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotining hozirgi bosqichi axborot, bilim hamda axborot texnologiyalarining rolini yanada oshirib yubordi. Raqamli iqtisodiyot yetakchi o'rin tutayotgan axborotlashgan jamiyatni tavsiflashda iqtisodchilar turli yondashuvlardan, jumladan, texnologik, iqtisodiy, mehnat, fazoviy, iste'mol va ijodiy mezonlardan foydalanadilar.

Raqamli iqtisodiy fazoning tarkibiy elementlari

- Texnik ta'minot
- Informatsion ta'minot
- Dasturiy ta'minot
- IT-konsalting
- Telekommunikatsiyalar
- Plarformali iqtisodiyot
- Raqamli xizmatlar
- Algoritmik iqtisodiyot
- Katta na'lumotlar iqtisodiyoti
- Raqamli sektor
- Raqamli iqtisodiyot
- Raqamlashtirilgan iqtisodiyot
- Almashinuv iqtisodiyoti
- Gigi iqtisodiot
- Frilansing
- Elektron tijorat
- Industriya4.0 [6, 475 b.]

Yuzaga kelayotgan iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etish maqsadida iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng miqyosda joriy etish zarurati paydo bo'ldi. Bu jarayon iqtisodiyotning barcha sohalarida uglerod chiqindilarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Hozirgi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri - “yashil moliya” tizimini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarini aniqlashdir. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishlarni chuqur o'rganish va ularni amaliyotda qo'llash barqaror iqtisodiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri sanaladi. “Yashil iqtisodiyot”ga

o'tish jarayonidagi eng muhim masalalardan biri - bu jarayonni samarali moliyalashtirishdir. Iqtisodiy adabiyotlarda “yashil” yoki “ekologik” moliya tushunchasining yagona, umumqabul qilingan ta'rif mavjud emas. Bir tomondan, “yashil iqtisodiyot”ga oid ko'plab manbalarda “yashil moliyalashtirish” atamasiga aniq ta'rif berilmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mavjud oz sonli ta'riflar mazmun jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. “Yashil moliya” va “yashil iqtisodiyot” o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan jarayonlardir. “Yashil moliya”ning asosiy maqsadi - barqaror biznes modeliga o'tish uchun zarur bo'lgan kapital ehtiyojini qondira oladigan samarali moliyaviy tizimni shakllantirishdir. Global miqyosda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayonida e'tibor, asosan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish hamda energiya tejankor texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishlar uzoq muddatli davrni o'z ichiga oladi va katta hajmdagi investitsiyalarni talab etishi bilan ajralib turadi. [4, 52-53 b.]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish O'zbekiston uchun ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishning muhim strategik yo'nalishidir. Bu jarayon tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida makroiqtisodiy siyosat bilan bir qatorda, mikroiqtisodiy subyektlarning ham faol ishtiroki zarur bo'ladi. Hozirda asosiy e'tibor yashil texnologiyalarni joriy etish, **“Yashil moliya”** tizimini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Shu bilan birga, texnologik baza, moliyaviy manbalar va infratuzilmaning cheklanganligi kabi muammolar ham mavjud. Biroq O'zbekistonning Parij bitimidagi faol ishtiroki, shuningdek, 2030-yilgacha mo'ljallangan “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi bu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish imkonini bermogda. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot mamlakatning kelajakdagi raqobatbardoshligini oshirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va

aholining farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladigan eng istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev Yashil iqtisodiyot: Darslik. 2-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan./ i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiytahriri ostida. - Toshkent: "ZEBO PRINT", 2021. - 264 b.
2. M.T.Asqarova, J.J.Jamolov, X.S.Xadjayev. Yashil iqtisodiyot. (Darslik). — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. - 312 b.
3. Muminov N.G. Industrial iqtisodiyot: Darslik. I qism / T.: “Tafakkur-bo‘stoni” nashriyoti, 2020., 261 bet.
4. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik.-T.: “Ma’rifat”, 2024. 224 bet.
5. N.Xolmatov. N.Imomova. «Makro va mikroiqtisodiyot» I'anidan o'quv qo'llanma. — T.: «Tafakkur avlodi», 2020. - 268-b.
6. R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, 554 bet.